Masalan, 2007-yildagi Soliq kodeksiga ko'ra mamlakatimizda 13 ta soliq nazorati shakllari mavjud bo'lgan, jumladan: 1) soliq to'lovchilarni hisobga olish; 2) soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish; 3) budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlarini hisobga olish; 4) kameral nazorat; 5) xronometraj ko'zdan kechirish; 6) tadbirkorlik subyektlari xodimlarining hisobotdagi sonining va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoring o'tkazish; 7) soliq tekshiruvlari; 8) mavzuli ekspress-o'rganish; 9) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash; 10) aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish; 11) davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish; 12) boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish; 13) soliq monitoringi. Mazkur ro'yxatda soliq tekshiruvi alohida soliq nazorati shakli sifatida belgilangan.

Yuqoridagi soliq nazorati shakllari bilan soliq tekshiruvining o'zaro qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq tekshiruvlari soliqlarni undirishda keng usul va vositalar-

dan foydalanadi, xususan, mazkur jarayonda soliq organlari vakolatlari kengroq bo'lib, soliq to'lovchilarning hisobotlari va joyiga chiqqan holda buxgalteriya hujjatlarini o'rganishi, bino va hududlarni ko'zdan kechirishi va zarur hujjatlarni boshqa tashkilotlardan so'rab olishi, bank hisobvaraqlariga inkasso qo'yishi va to'xtatib turishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, soliq organlari soliq tekshiruv orqali soliq to'lovchilarning mulk huquqi daxlsizligi va erkin foydalanish huquqiga daxl qilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki buzishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, qonunchilik soliq organlarining soliq nazoratini amalga oshirish usul va vositalarini belgilash va kengaytirishda xususiy huquq manfaatlarini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Amaldagi Soliq kodeksiga ko'ra soliq nazorati shakllari ikkita bo'lib, soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi shaklida o'tkaziladi. Ammo mazkur soliq nazorat turlari "nazorat shakli" maqomini yo'qotgan bo'lsa-da, "Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda "soliq tadbirlari" sifatida qayd etildi, jumladan, 1) soliq solish obyektlarini aniqlash; 2) xronometraj kuzatuvlarini o'tkazish; 3) nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo'llanishini tekshirish; 4) soliq to'lovchi xodimlarning hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish; 5) bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida soliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish; 6) savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish; 7) soliq to'lovchidan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni soliq to'lovchi (soliq agentlari) tomonidan xatlovdan o'tkazishni talab qilish kabi soliq tadbirlari belgilandi. Soddaroq aytganda, Soliq kodeksi bilan

belgilangan "soliq nazorati shakllari" qisqarib, qonunosti hujjat bilan "soliq tadbirlari" shaklida qayd etildi.

2007-yildagi Soliq kodeksining 85-moddasida soliq tekshiruv tushunchasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, shuningdek, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirish deb belgilangan edi.

Amaldagi Soliq kodeksining 137-moddasida soliq tekshiruvlari soliq to'lovchilar, yig'implarni to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkazilishi qayd etilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur normalar soliq tekshiruv tushunchasini to'liq ochib bermagan. Shu nuqtayi nazardan, soliq tekshiruv tushunchasini ishlab chiqish va unda soliq nazoratining asosiy elementlarini aks ettirish lozim deb hisoblaymiz.

Soliq to'lovchilarning huquqbuzarliklari natijasida to'lanmagan, noto'g'ri hisoblangan yoki yashirilgan soliqlar kameral tekshiruv orqali aniqlanadi. Xususan, O'zbekistonda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda 292,5 mingta tadbirkorlik subyektlarida kameral nazorat o'tkazilgan bo'lsa, shundan 173,2 mingtasida kamchiliklar aniqlangan, 2018-yilda esa 269,1 mingta subyektdan 166,1 mingtasida, 2019-yilda 213,6 mingta subyektdan 157,3 mingtasida, 2020 (9 oyda) 79,5 mingtadan 50,1 mingta tadbirkorlik subyektlarida kamchiliklar aniqlangan (1-jadval). Bundan tashqari, 2019-yilda 2 628 ta mavzuli ekspress-o'rganish o'tkazilgan, 4 522 ta hujjatli tekshiruv (likvidatsiya va jinoyat ishlari bo'yicha) o'tkazilgan. Ko'rib turganimizdek, yillar bo'yicha kameral tekshiruvlar sonining oshib borishi xatoliklarni ko'proq aniqlash va qo'shimcha pul mablag'larini budjetga undirish imkonini bermogda.

1-jadval

Kameral nazorat o'tkazish natijasida budjet va budjetdan tashqari mablag'larning tushumi (Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlandi) (mlrd so'mda)

Ko'rsatkichlar	Yillar										
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020 9 oy
Umumiy undirilgan summa	216,4	366,5	395,9	496,0	739,0	536,3	693,2	701,9	1 034,4	4 477,1	4 017,1
Budjetga	176,0	293,2	296,0	319,0	488,8	321,8	416,3	652,1	965,5	4 391,2	3 383,6
Budjetdan tashqari mablag'lar-ga	40,4	73,3	99,9	178,0	250,2	214,5	276,9	49,8	68,9	85,9	633,5
Tartibni buzgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni	42,9	59,6	65,4	107,1	84,3	124,6	166,5	173,2	166,1	157,3	50,1

Tadqiqot natijalari tahlili

Soliq tekshiruvi tushunchasi bo'yicha huquqshunos olimlar o'rtasida turli bahs-munozaralar mavjud. Masalan, bir guruh olimlar soliq tekshiruvi tushunchasini soliq nazorati shakli sifatida tahlil qilishadi. Xususan, F. Mirzayev [5, 10-b.], L. Kofler, Y. Kashirina [6, 164-b.], Z. Gasiyeva, V. Kaytmazov [7, 239-b.], G. Nesterov, N. Poponov va A. Terzidilarning [8, 38-b.] fikricha, soliq tekshiruvi budjetga soliqlar va majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'liq to'lanishiga qaratilgan soliq organining nazorat harakati hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilgan holda, soliq va yig'implarning davlat budjetiga undirilishida soliq tekshiruvi soliq nazoratining eng muhim shakli ekanligini ta'kidlash zarur. Farqli ravishda ayrim olimlar soliq tekshiruvini soliq organining asosiy vazifasi sifatida qaraydi. Xususan, A. Xamidov [9, 91-b.] va M. Todorovich [10, 161-b.] soliq tekshiruvini soliq organlarining uchinchi eng muhim funksiyasi hisoblanishini, soliqlarni aniqlash va yig'ish funksiyalarini tekshirish shakli sifatida qayd etishadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda soliq tekshiruvi avvalambor soliq organining asosiy funksiyasi ekanligi va soliq tekshiruvlari faqatgina soliq organining vakolatli xodimi tomonidan o'tkazilishiga urg'u beramiz.

Ayrim xorijiy olimlar soliq tekshiruvini faqat soliq to'lovchining soliq majburiyatlari bo'yicha soliq hisobotlarini tekshirishga qaratilgan harakatlar jamlanmasi sifatida ta'kidlashadi [11, 9-b.]. Xususan, David John Hoey [12, 19-b.], Edmund Biber [13, 1-b.], Satoru Araki, Iris Claus [14, 51-b.], T. Kurbatov [15, 72-b.] va A. Tagayevlarning [16, 7-b.] fikricha, soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliyaviy hujjatlar va soliq hisobotlarini tekshirish hisoblanadi [17, 1-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda soliq tekshiruvida soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga emas, balki faktik hujjatlari va boshqa organlardan olingan hujjatlar ham tekshirilishini qayd etamiz.

Ba'zi olimlar esa soliq tekshiruvlarini protsessual harakatlar jamlanmasi sifatida tavsiflashadi. Xususan, Appelgren Leif [18, 67-b.], G. Aytxoijina [19, 199-b.], N. Kup-

riyanova, N. Laychenkova [20, 88-b.] va S. Shornikovlarning [21, 15-b.] fikricha, soliq tekshiruvi qonunchilikda belgilangan vakolatlar doirasida soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan, soliq va yig'implarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'liq to'lanishini ta'minlovchi, soliq solish sohasida huquqbuzarliklar va ularning sabablarini bartaraf etuvchi, shuningdek, soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlik choralari qo'llashga qaratilgan chora-tadbirlar jamlanmasi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, soliq tekshiruvlari o'ziga xos tarzda moddiy va protsessual normalar asosida tartibga solinadigan soliq huquqining alohida instituti hisoblanadi.

Bir guruh olimlar esa soliq tekshiruvi mohiyatini ochib berishda uni soliq ma'muriyatchiligining tarkibiy qismi sifatida qayd etishadi. Xususan, N. Ashurova [22, 195-b.], J. Urmonov [23, 38-b.], Y. Kanyazov [24, 21-b.] va Lidija Hauptmanlarning [25, 4-b.] fikriga ko'ra, soliq tekshiruvi soliq ma'muriyatchiligining asosiy shakllaridan biri bo'lib, keng ma'noda vakolatli organning barcha faoliyatini, xususan, soliq hisobini yuritish, soliq tekshiruvi, soliqlar va yig'implarni to'lash bilan bog'liq soliq nazorati obyektlarini qamrab olishi, tor ma'noda vakolatli organlar tomonidan soliq tekshiruvini o'tkazish deb ta'kidlashadi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi olimlarning fikrlari biroz munozarali hisoblanadi, chunki soliq tekshiruvi keng va tor ma'noda faqat soliq organining ma'muriy organ sifatida tekshiruv munosabatlarida ma'muriy harakatlarni (ma'muriy akt chiqarishi) amalga oshirishi deb hisoblaymiz.

Ayrim olimlar soliq tekshiruvi faqatgina soliqlarni emas, balki yig'implarni ham o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilishga qaratilganligini ta'kidlashadi. Jumladan, V. Lipskiy [26, 75-b.], V.A. Timoshenko [27, 15-b.] va L. Spirinaning [28, 6-7-b.] fikriga ko'ra, soliq tekshiruvi – vakolatli organ tomonidan soliq solish obyektlarida hamda buxgalteriya hisobotlari va boshqa hujjat-

larda yig'implarni (soliq) to'lash tartibining ishonchliligi va qonuniyligini o'rganish maqsadida qo'llanadigan soliq nazoratining maxsus usullari jamlanmasi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, soliq tekshiruvi na faqat soliq, balki yig'implarni undirishga ham qaratilgan bo'lib, mazkur mablag'lar davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga undiriladi.

Lekin ayrim olimlar, jumladan, O. Mironova [29, 48-b.], N. Shestakova [30, 18-b.], T. Silvestrova, Y. Sokolova, D. Nazarov [31, 61-b.], Y. Puzireva [32, 8-9-b.], A. Demin [33, 127-b.], Y. Kroxina [34, 162-b.] va M. Sadchikovlar [35, 16-b.] soliq tekshiruvi tushunchasi soliq qonunchiligiga rioya etishni nazorat qilish bo'yicha soliq agenti hamda soliq va yig'im to'lovchilarning hisobot ma'lumotlarini, moliya-xo'jalik faoliyatining faktik holatini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladigan vakolatli organning protsessual harakatlari jamlanmasi deb hisoblaydilar.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda soliq tekshiruvlari jarayonida kameral tekshiruv orqali soliq hisobotlari va sayyor tekshiruv orqali esa soliq to'lovchining faktik moliya-xo'jalik hujjatlari tekshirishini qayd etamiz.

Soliq tekshiruvlari soliq nazoratining asosiy elementlari, jumladan, tekshiruv subyekti, obyekti, predmeti va mazmuniga [36, 65-b.] ega bo'lishi lozim hisoblanadi. Masalan, soliq tekshiruvlari subyekti – soliq organlari; soliq tekshiruvi obyekti – soliq to'lovchilar; soliq tekshiruvi predmeti – soliqlar va yig'implarning to'g'ri hisoblanganligi va o'z vaqtida to'liq to'langanlik holati; soliq tekshiruvlari mazmuni esa taraflarning huquq va majburiyatlari hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, soliq tekshiruvi soliq organlari xodimlari tomonidan soliq to'lovchilarning (soliq agent) soliq va yig'implarni budjetga o'z vaqtida va to'liq to'lashini ta'minlashga qaratilgan soliq nazorati tadbirlari yig'indisi hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-

ning 2020-yil 30-oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq soliq organlari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 10 512 shtat birlikni tashkil etsa, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi nizomga muvofiq, mazkur xodimlardan faqatgina soliq tekshiruvlari bo'yicha layoqatni belgilovchi attestatsiyadan o'tgan xodimga 3 yil muddatga tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga ruxsat beriladi.

Masalan, Germaniyada soliq organi xodimi soliq tekshiruvi o'tkazish uchun vakolatli bo'lishi uchun 3 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi, malaka imtixonini topshirishi, soliq tekshiruvi bo'yicha 6 oylik o'quv kursida o'qishi lozim bo'ladi [37, 3-b.]. Meksikada soliq organi xodimlaridan soliq tekshiruvi o'tkazish uchun layoqatlilik sertifikatini talab etiladi, Avstraliyada esa soliq riski yuqori bo'lgan sohalarni tekshirish uchun maxsus diplom talab etiladi [38, 55-b.].

Soliq tekshiruvlarining mazmun-mohiyatini ochib berishda, uning maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, soliq tekshiruvi soliq qonunchiligiga rioya etilishini doimiy nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Amaldagi Soliq kodeksining 137-moddasiga ko'ra, soliq tekshiruvlari soliq to'lovchilar, yig'imlarni to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkazilishi belgilangan. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi normalar bilan soliq tekshiruvining maqsadi to'liq ochib berilmagan. Chunki soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish soliq organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Rossiyada soliq tekshiruvining maqsadi soliq to'lovchilar tomonidan soliq va yig'im

to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish hisoblanadi [39, 12-b.]. Malayziyada soliq tekshiruvining maqsadi soliq qonunchiligiga ixtiyoriy amal qilishni rag'batlantirish va o'z-o'zini baholash tizimida soliq qonunchiligiga yuqori darajada rioya qilishni ta'minlash hisoblanadi [40, 25-b.]. Indoneziyada soliq tekshiruvining maqsadi soliq majburiyatlariga rioya qilinishini o'rganish bo'lib, soliq hujjatlarini qonunda ko'rsatilgan muddatda tekshirish hisoblanadi [41, 4-b.].

Bu borada huquqshunos olimlar turli fikrlarni bildirishadi. Xususan, S. Shornikovning fikricha, soliq tekshiruvining maqsadi soliq agenti, soliq va yig'im to'lovchi tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi darajasini aniqlash hisoblanadi [42, 15-b.]. Mazkur olimning fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Z. Achmiz soliq nazoratining maqsadi ideal holatda soliq qonunchiligini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta'minlash kerakligini ta'kidlaydi [43, 6-b.]. Mazkur olim javobgarlikka tortish nuqtayi nazaridan yondashgan.

Biroq M. Chistova va D. Xapchayevalar esa soliq tekshiruvining asosiy maqsadini soliq huquqbuzarliklarining oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va profilaktikasi hamda soliq qonunchiligini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish deb hisoblaydilar [44, 206–209-b.].

Mazkur olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi, chunki soliq tekshiruvi maqsadi va vazifalari bir-biridan farq qiladi. Maqsad erishilishi lozim bo'lgan masala bo'lsa, vazifa mazkur maqsad uchun amalga oshiriladigan harakatlar jamlanmasi hisoblanadi.

Ba'zi olimlar soliq tekshiruvi maqsadining soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazorati maqsadi bilan aynan ekanligini qayd etishadi hamda soliq tekshiruvi maqsadini, jumladan, T. Yefremova soliqlarni (yig'im) ixtiyoriy to'lashga erishish va soliq qonunchiligi qoidabuzarliklari sonini imkon qadar kamaytirish, [45, 46-b.] N. Kozlov esa soliq va yig'im to'g'risidagi qonunchilikka rioya qili-

nishini ta'minlash, [46, 25-b.] A. Telegus esa budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga soliq tushumlarining maksimal tushishini ta'minlash, [47, 12-b.] A. Sviliy-Buklanova esa davlatning soliq xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash, oldini olish va zararsizlantirish deb ta'kidlashadi [48, 10-b.].

Bizning fikrimizcha, soliq tekshiruvi maqsadi soliq intizomiga erishish hisoblanadi va o'z navbatida, soliq intizomi tushunchasi soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligi bo'yicha soliq va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq to'lashini ifodalovchi daraja ekanligini qayd etamiz.

Biroq V. Gudimov soliq tekshiruvi maqsadini soliqlar va yig'implar bo'yicha qonun normalarini buzish va bo'yin tovlashlarni aniqlash, zarur choralarni ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va davlatga yetkazilgan zararni qoplash, bunday harakatlar sodir etilishining oldini olish yoki kamaytirish deb hisoblaydi [49, 11-b.]. Yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda I. Batayev [50, 54-b.] va A. Tedeyev [51, 175-b.] soliq tekshiruvining maqsadini soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'liq o'z vaqtida to'lanishi, shuningdek, soliq hisobotlari va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi olimlar soliq tekshiruvi maqsadini nazorat qilish nuqtayi nazaridan ifodalaydi. Aslida soliq tekshiruvi maqsadi soliqlarning to'langanligi to'g'risida ishonchli xulosa chiqarishda ifodalanadi.

Shunga qaramasdan, Arturo Jacobs soliq tekshiruvining asosiy maqsadini soliq to'lovchilarning o'z-o'zini baholash va soliq majburiyatlariga ixtiyoriy rioya qilinishiga erishish hisoblanishini ta'kidlaydi [52, 11-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 5308-son Farmonining 2-bandiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoniga muvofiq, 2021-yil 1-yanvarga qadar tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini soliq auditidan o'tkazish to'xtatilgan.

2-jadval

**Sayyor soliq tekshiruvlari natijalari tahlili
(Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlandi)**

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2018	2019	2020
O'tkazilgan tekshiruvlar soni	20667	19364	19580	19103	18115	16861	18524	-	-	-
Aniqlangan tartib-buzarliklar soni	17296	16868	17634	17194	16541	15407	17065	-	-	-
O'tkazilgan tekshiruvlar samaradorligi (%da)	89.1	93.4	96.0	97.0	96.0	93.2	92.1	-	-	-
Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qo'shimcha undirilgan mablag'lar mlrd so'mda	243.8	318.1	381.4	450.8	674.3	708.4	656.8	-	-	-

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq tekshiruv tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini keltiriladi: *soliq tekshiruv* – soliq organlarining vakolatli xodimi tomonidan soliq to'lovchilarning (soliq agenti) soliq va yig'implarni budjetga o'z vaqtida va to'liq to'lashini ta'minlashga qaratilgan soliq nazorati tadbirlari yig'indisi hisoblanadi.

Shu bilan birga, soliq tekshiruvlarining o'ziga xos quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tamiz:

birinchidan, soliq tekshiruv jarayonida bir tomondan davlat organi – soliq organi vakolatli xodimi va ikkinchi tomondan fuqarolik burchini bajaruvchi soliq to'lovchilar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga muvofiq, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shart) – yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadi;

ikkinchidan, soliq tekshiruv soliqlarning budjet tizimiga to'liq va o'z vaqtida tushishiga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlar yig'implarni ham qamrab oladi;

uchinchidan, soliq tekshiruv soliq to'lovchilarning soliq hisobotlari va soliqlarni (yig'im) hisoblashga asos bo'luvchi bosh-

qa hujjatlarni ko'zdan kechirishga qaratilgan bo'lib, buxgalteriya va moliya-xo'jalik faoliyatini (O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra, moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) – soliq qonunchiligiga rioya etilishi us-tidan nazoratni amalga oshirish maqsadida buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarni o'rganish va taqqoslash hisoblanadi) qamrab oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq tekshiruv maqsadi tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini keltiriladi: *soliq tekshiruvning maqsadi* – soliq to'lovchilar (soliq agenti) tomonidan soliqlar (yig'im) to'g'ri va to'liq to'langanligiga ishonch hosil qilish va soliq intizomiga erishish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, soliq tekshiruv tushunchasi va uning yuridik tabiati soliq (yig'im) kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, soliq (yig'im) turlaridagi o'zgarishlar soliq tekshiruvining mazmuniga ta'sir qiladi. Soliq tekshiruv nafaqat soliqlarni, balki yig'implarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini ham nazorat qiladi.

REFERENCES

1. Hojiyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik [Legal liability for violation of tax legislation]. Tashkent, 2006, p. 3.
2. Li A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi [Financial law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2006, p. 215.
3. Xvan L.B. Soliq huquqi [Tax law]. Tashkent, TSIL Publ., 2001, p. 16.
4. Smith A. Bogatstvo narodov: perevod na sovremennyy angliyskiy yazyk [The Wealth of Nations: A Translation into Modern English]. Government Finances: Public Expenditure, Taxation and Borrowing, 2015, book 5, pp. 423–429.
5. Mirzayev F.A. O'zbekistonda soliq yig'iluvchanligi darajasini oshirish yo'llari [Ways to increase the level of tax collection in Uzbekistan]. Tashkent, 2012, p. 10.
6. Kofler L.I., Kashirina Y.P. Nalogovyye proverki: vidi, poryadok provedeniya i oformleniya rezultatov [Tax audits: types, procedure for conducting and registration of results]. *Territory of Science*, Voronezh Economic and Law Institute, 2017, no. 1, p. 164.
7. Gasiyeva Z.P., Kaytmazov V.A. Povisheniye effektivnosti provedeniya nalogovikh proverok [Improving the efficiency of tax audits]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation*, 2019, no. 2, p. 239.

8. Nesterov G.G., Poponov N.A., Terzidi A.V. *Nalogovyy kontrol* [Tax control]. Moscow, Eksmo Publ., 2009, p. 38.
9. Xamidov A. *Davlatning moliyaviy faoliyatini huquqiy tartibga solish* [Legal regulation of the financial activity of the state]. Tashkent, 2012, p. 91.
10. Todorovic M., Stankovic I., Ljajic S. Tax audit as a significant factor in suppressing tax evasion. *Economic Themes Serbia*, 2017, vol. 2 (55), pp. 161–178.
11. Strengthening Tax Audit Capabilities: General Principles and Approaches. Organisation for Economic co-operation and development. Information Note. Center for Tax Policy and Administration, 2006, p. 9.
12. Hoey D.J. *Tax Audit Rules and Firm Behaviour*. PhD thesis. The University of Adelaide, 2015, p. 19.
13. Biber E. Revenue Administration, Taxpayer audit – Development of Effective Plans. Technical notes and manuals. *International Monetary Fund. Fiscal Affairs Department*, 2010, April, p. 1.
14. Araki S., Claus I. A Comparative analysis of tax administration in Asia and Pacific. Asian Development Bank, 2014, p. 51.
15. Kurbatov T.Y. *Pravovyye formy i metody nalogovogo kontrolya* [Legal forms and methods of tax control]. Moscow, 2015, p. 72.
16. Tagayev A., Xoshimov F., Ro'ziyev G', Xotamov K. *Soliq nazorati* [Tax control]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2010, p. 7.
17. Risk-based audit selection (RBAS) system. USAID Economic Prosperity Initiative (EPI), 2012, p. 1.
18. Leif A. The effect of Audit Strategy information on tax compliance – an empirical study. *eJournal of Tax Research (ejlTaxR4)*, 2008, vol. 6 (1), p. 67.
19. Aytkhozhina G.S. Genesis nalogovykh proverok [Genesis of tax audits]. Tax policy at the present stage. *Bulletin of Omsk University. Economics Series*, 2012, no. 1, p. 199.
20. Kupriyanova N.A., Laychenkova N.N. *Nalogovoye pravo* [Tax law]. Saratov, Saratov State Socio-economic University, 2010, p. 88.
21. Shornikov S.A. *Teoretiko-pravovyye osnovy osushestvleniya nalogovykh proverok v Rossiyskoy Federatsii* [Theoretical and legal foundations for implementing tax audits in the Russian Federation]. Moscow, 2008, p. 15.
22. Ashurova N.B. *Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish* [Improving the taxation mechanism to ensure sustainable economic growth]. Tashkent, 2018, p. 195.
23. Urmonov J.J. *Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari* [Issues of improving the regulation of the activities of business entities through the tax mechanism]. Tashkent, 2018, p. 38.
24. Kanyazov Y.S. *Administrativno-pravovyye problemy osushestvleniya nalogovogo kontrolya v Respublike Uzbekistan* [Administrative and legal problems of tax control in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2005, p. 21.
25. Hauptman L., Horvat M., Korez-Vide R. Improving tax administration's service as a factor of tax compliance: the case of tax audit. *Lex Localis - Journal of Local Self-Government*, 2014, no. 12, p. 4. DOI: 10.4335/12.3.481-501(2014). Available at: <https://www.researchgate.net/publication/276190378>
26. Lipskiy V. Tax control during tax audits. *Legea Si Viata*, 2017, p. 75.
27. Timoshenko V.A., Spirina L.V. *Proverki nalogovykh organov* [Tax inspections]. Moscow, Dashkov Publ., 2009, p. 15.
28. Spirina L.V. *Nalogovyye proverki* [Tax audits]. Moscow, 2007, pp. 6–7.
29. Mironova O.A. *Nalogovoye administrirovaniye* [Tax administration]. Moscow, Omega –L Publ., 2005, p. 48.
30. Shestakova N.N. *Nalogovyye proverki v sisteme nalogovogo kontrolya* [Tax audits in the tax control system]. *Economy - Social, Economic and Humanitarian Journal of Krasnoyarsk State Agrarian University*, 2018, no. 1, p. 18.
31. Silvestrova T.A., Sokolova Y.A., Nazarov D.G. *Nalogovyy kontrol' i otsenka yego effektivnosti* [Tax control and assessment of its effectiveness]. *Bulletin of the Russian University of Cooperation, Economic Sciences*, 2018, no. 1 (31), p. 61.

32. Puzyryova Y.A. Nalogovyye proverki v sisteme nalogovogo kontrolya (pravovoy i organizatsionnyy aspekty) [Tax audits in the tax control system (legal and organizational aspects)]. Moscow, 2009, pp. 8–9.
33. Demin A.V. Nalogovoye pravo Rossii [Tax law of Russia]. Moscow, Yurlitinform Publ., 2006, p. 127.
34. Krokhnina Y.A. Nalogovoye pravo [Tax law]. Moscow, Yurait Publ., 2016, p. 162.
35. Sadchikov M.N. Kameralnyye i vyyezdnyye nalogovyye proverki kak forma nalogovogo kontrolya [Office and on-site tax audits as a form of tax control]. Saratov, 2010, p. 16.
36. Saydullayev D.D. Suschnost' nalogovogo kontrolya i osnovnyye printsipy yego osuschestvleniya [The essence of tax control and the basic principles of its implementation]. *Journal of Economy and Business*, 2018, vol. 11-2, p. 65.
37. Die Allgemeine Verwaltungsvorschrift für die Betriebsprüfung. 2000, p. 3. Available at: https://www.bundesfinanzministerium.de/Content/DE/Standardartikel/Themen/Steuern/Weitere_Steuerthemen/Betriebspruefung/Pruefungsordnung/betriebspruefungsordnung-2000.html
38. Strengthening Tax Audit Capabilities: General Principles and Approaches. Forum on Tax Administration's Compliance Sub-group. Organisation for economic co-operation and development. 2006, p. 55.
39. Tax Code of the Russian Federation (Part One), dated 1998, July 31, No. 146-FZ (as amended on July 20, 2020). Available at: <https://legalacts.ru/kodeks/NK-RF-chast-1/-S.12>
40. Inland Revenue Board Malaysia. Tax audit framework. P. 25. Available at: http://phl.hasil.gov.my/pdf/pdfam/tax_audit_framework_2015.pdf
41. Anthonius M.N.A. Analysis of Taxpayers' Non-compliance Factors Based on the Results of the Tax Audit and the Opinion of the Tax Auditor in Indonesia. *Proceedings of the ICEMAB*, Medan, Indonesia, 2018, October 8–9, p. 4. Available at: <https://eudl.eu/pdf/10.4108/eai.8-10-2018.2288712>
42. Shornikov S.A. Teoretiko-pravovyye osnovy osuschestvleniya nalogovykh proverok v Rossiyskoy Federatsii [Theoretical and legal foundations for implementing tax audits in the Russian Federation]. Moscow, 2008, p. 15.
43. Achmiz Z.M. Nalogovyye proverki i ikh sovershenstvovaniye [Tax audits and their improvement]. *Alley of Science*, 2018, no. 1 (17), p. 6.
44. Chistova M.V., Khapchayeva D.R. Kameralnyye nalogovyye proverki v sisteme nalogovogo kontrolya [Chamber tax audits in the tax control system]. Strategy of social and economic development of society: management, legal and economic aspects: *Proceedings of the 8th International Scientific and Practical Conference*, Southwestern State University, Kursk, Russia, 2018, pp. 206–209.
45. Yefremova T.A. Razvitiye nalogovogo administrirovaniya v Rossii: teoriya, metodologiya, praktika [Development of tax administration in Russia: theory, methodology, practice]. Saransk, 2017, p. 46.
46. Kozlov N.A. Zashchita prav nalogoplatetschika v khode nalogovogo kontrolya [Protection of taxpayer rights during tax audit]. Moscow, 2019, p. 25.
47. Telegus A.V. Nalogovyy kontrol' pri nalogooblozhenii fizicheskikh lits na osnove podkhoda «ob'yekt kontrolya – nalogoplatetschik» [Tax control in taxation of individuals is based on the approach “object of control – taxpayer”]. Nizhny Novgorod, 2009, p. 12.
48. Sviliy-Buklanova A.A. Nalogovyy kontrol' v sisteme obespecheniya nalogovoy bezopasnosti gosudarstva [Tax control in the system of ensuring tax security of the state]. Nizhny Novgorod, 2011, p. 10.
49. Gudimov V.I. Nalogovyy kontrol': protsessual'no-pravovaya kharakteristika [Tax control: procedural and legal characteristics]. Voronezh, 2005, p. 11.
50. Batayev I.T. Servisnaya i kontrol'naya funktsiya nalogovogo administrirovaniya v sisteme tsifrovogo vzaimodeystviya gosudarstva i ekonomicheskikh sub'yektov [Service and control functions of tax administration in the system of digital interaction between the state and economic entities]. Grozny, 2020, p. 54.
51. Tedeyev A.A. Nalogovoye pravo Rossii [Tax law of Russia]. Moscow, Yurayt Publ., 2019, p. 175.
52. Jacobs A. Detailed Guidelines for Improved Tax Administration in Latin America and the Caribbean. *USAID'S Leadership in Public Financial Management*, 2013, April, p. 11.